



UDK:821.512.133\*06.09-4

**Kamola I. EGAMBERDIYEVA,**

*Filologiya fanlari bo'yicha falsafadoktori(PhD), dotsent*

*Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Respublika ta'lim markazi, Toshkent, O'zbekiston*

*E-mail:kamolaegamberdiyeva18@gmail.com*

*Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Respublika ta'lim markazi Ona tili va adabiyot bo'limi metodisti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori J.Eshonqulov taqrizi asosida*

## EVOLUTION OF FEMALE PSYCHOLOGY IN MODERN UZBEK SHORT STORIES.

Annotation

This article analyzes the artistic and psychological interpretation of the female image in modern Uzbek short stories and the stages of its historical and gradual development within the context of socio-philosophical factors. The research highlights qualitative changes in the depiction of women's fate and psyche resulting from the establishment of creative freedom in the literature of the independence period, specifically the realistic representation of female characters as pure socio-psychological subjects.

**Key words:** Modern Uzbek short story, female psychology, evolution, artistic psychologism, woman's fate, stages of development, skill of Uzbek female writers, literature of the independence period.

## ЭВОЛЮЦИЯ ЖЕНСКОЙ ПСИХОЛОГИИ В СОВРЕМЕННОМ УЗБЕКСКОМ РАССКАЗЕ

Аннотация

В данной статье анализируется художественно-психологическая интерпретация образа женщины в современном узбекском рассказе и этапы его историко-постепенного развития в контексте социально-философских факторов. В исследовании освещаются качественные изменения в изображении женской судьбы и психики, возникшие в результате установления творческой свободы в литературе периода независимости, в частности, реалистичное изображение героинь как чистых социально-психологических субъектов.

**Ключевые слова:** Современный узбекский рассказ, женская психология, эволюция, художественный психологизм, судьба женщины, этапы развития, мастерство узбекских писательниц, литература периода независимости.

## ZAMONAVIY O'ZBEK HIKOYASIDA AYOL RUHIYATI EVOLYUTSIYASI

Annotatsiya

Mazkur maqolada zamonaviy o'zbek hikoyachiligida ayol obrazining badiiy-psixologik talqini va uning tarixiy-tadrijiy taraqqiyot bosqichlari ijtimoiy-falsafiy omillar kontekstida tahlil qilingan. Tadqiqotda mustaqillik davri adabiyotida ijodiy erkinlikning qaror topishi natijasida ayol qismati va ruhiyati tasvirida yuz bergan sifat o'zgarishlari, xususan, qahramonlarning sof ijtimoiy-psixologik subyekt sifatida real aks ettirilishi yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Zamonaviy o'zbek hikoyachiligi, ayol ruhiyati, evolyutsiya, badiiy psixologizm, ayol qismati, tadrijiy taraqqiyot, o'zbek adibalarining mahorati, milliy istiqloq davri adabiyoti.

**Kirish.** Zamonaviy o'zbek adabiyotida azaliy murojaat qilib kelinayotgan obrazlar mavjud, ularan mumtozi ayol obrazidir. Ijodkorlar o'z hikoyalarida ayollar olamini inson hayoti bilan bog'lab, ular orqali chuqur falsafiy fikrlarini ifoda etganlar. Ayollarni tasvirlashda nihoyatda nozik badiiy did va ramziylikka tayanib boradilar. Shuningdek, asosan, ular ayol tabiatidan tashqari uning ruhiyati, ichki olami, ijtimoiy va falsafiy g'oyalarni hamda davr muammolarini aks ettirishda muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Hikoyanavislar odatda o'z hikoyasida ayol tabiatidagi o'ziga xosliklardan xususan, ayol borlig'i, erkaklarda ucharamaydigan xarakteri, ruhiy olami va taqdir bitigidagi evrilishi tavrilaridan o'rinli foydalanadi. Bu tasvirlar orqali har bir davrlarda ayollarning dardini yoki holatlarini ifodalab berishi osonroq kechgan. Ayrim hikoyanavislar ayol taqdiridan ta'sirlanib, o'z hikoyalarida ayol ruhiyatini ochib beruvchi tasvirlardan foydalanishgan.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Zamonaviy o'zbek hikoyachiligida ayollar tasviri, xususan, ayol qismati qadimdan badiiy obraz yaratish, ruhiy holatni ifodalash va falsafiy mushohadalarni ifodalashda muhim vosita bo'lib kelgan. Zamonaviy adabiyotda ayol ko'pincha hayotning muayyan bosqichi, insonning pirovard yo'li, vaqtning o'tkinchiligi ramzi sifatida talqin qilingan. Salomat Vafo, Zulfiya Qurolboy qizi,

Jamila Ergasheva, Lobar Rustamova, Ma'mura Zohidova, Tillaniso, Nodirabegim Ibroximova, Raxshona Axmedova singari ijodkorlarning hikoyalarida ayol obrazlari ruhiy kechinmalar, qismatning bitigi va hayot falsafasi bilan uyg'un holda yoritiladi.

XXI asr o'zbek hikoyachiligida ayol obraziga murojaat qilish an'anasi davom ettirildi. Adibalar ijodida ayol ruhiyati, kechinalari mavzusi muallifning o'z davridan kelib chiqqan ruhiy iztiroblari, tashvishlari va umidlarini ifodalashga xizmat qildi. Ayniqsa, Zulfiya Qurolboy qizi hikoyalarida ayol obrazlari ruhiy tushkunlik, armon va ichki iztiroblar bilan bog'lanadi.

Mustaqillik davri hikoyalarida esa ayol tasviri qahramonning falsafiy mushohadalari, ruhiy o'zgarishlari va shaxsiy kechinmalarini ifodalashda yangicha badiiy mazmun kasb etdi. Tillaniso, Nodirabegim Ibroximova, Raxshona Axmedova kabi hikoyanavislarning asarlarida ayol qismati va ruhiyatining badiiy talqini insonning ichki dunyosi, ijtimoiy-milliy ruhiy kechinmalari bilan uyg'unlashadi. Adabiyotlarda ayol tasvirining ko'p qirraligi, uni ruhiyati bilan bog'lash o'zbek hikoyachiligining asosiy estetik xususiyatlaridan biri sifatida tadqiqotchilar tomonidan qayd etilgan. Bunda ayol qismati orqali uning ruhiy olami, falsafiy qarashlari, hayotiy

izlanishlari badiiy obraz darajasiga ko'tarilganini kuzatish mumkin.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqotda adabiyotshunoslikning qiyosiy-tipologik, struktur-semantik, poetik tahlil metodlari asosiy yondashuv sifatida qo'llanadi. Qiyosiy-tipologik tahlil orqali zamonaviy o'zbek hikoyachiligida ayol obrazining talqini qiyoslanadi, turli ayol hikoyanavislarda bu obrazning ruhiy-falsafiy mazmun kasb etishi ochib beriladi. Struktur-semantik metod yordamida ayol tasvirining badiiy vositalar (epitet, metafora, ramz, peyzaj) orqali ifodalanishi, ularning mazmuniy qatlamlari hamda ayol ruhiyati bilan bog'liqligi tadqiq qilinadi. Poetik tahlil metodologiyasi asosida esa ayol obrazining badiiy-estetik vazifasi, uning ayol kayfiyati va ruhiy kechinmalarini ifodalashdagi o'rni yoritiladi. Zaruratga ko'ra, intertekstual tahlil yondashuvi ham qo'llanib, ayol tasvirining jahon hikoyachiligidagi o'xshash talqinlari bilan qiyosiy o'rganilishi mumkin.

Metodologik yondashuvlar uyg'unligi ayol obrazining zamonaviy o'zbek hikoyachiligidagi o'rni, uning ayol ruhiy olamidagi badiiy ifodasini yanada mukammal tahlil qilish imkonini beradi.

**Tahlil va natijalar.** Zamonaviy milliy adabiyotda ayol obrazi va uning qisimatini tadqiq etish badiiy adabiyotning asosiy maqsadlaridan biri sanaladi. Bu esa, avvalo, ayolning orzu-armonlari, ayol haqidagi badiiy-estetik tushunchalarni o'rganishni talab etadi. Badiiy adabiyot ijtimoiy ong shakli ekanligi inobatga olinsa, har bir ijtimoiy muhitda yangi qiyofadagi obraz yaratish kun tartibiga chiqishi oydinlashadi.

Erkka erishilgach, milliy adabiyotimizda ham yangicha fikrlaydigan, yangicha dunyoqarashga ega ayollar tasvirlana boshladi. Bugungi zamonaviy o'zbek hikoyachiligida ayol qismati va uning ruhiyati yetakchi ijtimoiy asosi milliy mustaqillik bo'ldi. Aynan ozodlik qo'lga kiritilgach, ijodiy erkinlik berildi. Avval obrazlar sobiq tuzum mafkurasining ma'lum tamoyillari asosida tasvirlanishi talab qilingan bo'lsa, endi ayol qanday o'ylasa, yashasa, qanday mavjud bo'lsa shu holda taqdim etilmoqda. Bundan tashqari, ijodkor qanday tasavvur qilsa, shunday tasvirlash, uni sof ijtimoiy-psixologik subyekt sifatida real namoyish etish imkoni yaratildi.

Aslida, ayol qismati, uning ruhiyati tasviri konsepti umumfalsafiy tushuncha hisoblanadi. Har bir davrda, har qanday jamiyatda ayol obrazini aks ettirish asosida jamiyat kishilarining dunyoqarashi ifodalangan.

Adabiyotshunos Yo'ldosh Solijonov bugungi ijodiy erkinlikni quyidagicha ta'riflaydi: "Buning samarasi tez orada aniq ko'zga tashlandi, ya'ni jadallik bilan o'sib borayotgan siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy tafakkur ta'sirida adabiy-badiiy tafakkur ham shakllanib, ulg'ayish yo'lga kirdi. Dastlab odamzodning iqtisodiy bo'ronlar ummonidagi suzish qiyinchiliklari, cho'kish azobi, ikkilanish, bemaqsad quloq otishlarini real tasvirlashdan o'zini tiygan adabiyot ahli yangi asrning ilk yillaridan boshlab, bu mavzuni jiddiy ishlashga kirishdi. Bozor va inson taqdiri keyingi yillar o'zbek nasrining eng ko'p ishlanayotgan muammosiga aylandi"[12]. Bu yerda bozor va ayol taqdiri o'rtasidagi munosabatlar natijasida ayol qismati uning ruhiyati konseptining ma'lum bir qirradi shakllanishiga urg'u berilgan. Demak, ayol ruhiyati tasvirining xususiy belgilaridan biri bozor va ayol munosabati hamda shu ikki subyekt faoliyati bilan bog'liq voqelik badiiy adabiyotda ayolning yangicha qarashlarini aks ettiradi.

Aslida, ayollar ichki olamida ro'y beradigan o'zgarishlar, yangicha qiyofalarning shakllanishini jamiyat taraqqiyotida doimiy yuz beradigan jarayon deb qabul qilish mumkin. Ayniqsa, bizning avloddek bir tuzumdan ikkinchi bir tuzumga o'tgan jamiyat ahli bu holat yaqqol iz qoldiradi. Bir tizimdan ikkinchi bir tizimga — bozor iqtisodiyoti

munosabatlariga o'tish oson kechadigan jarayon emasligini hammadan ko'ra ijod ahli yaxshi biladi, teran his etadi. Bu haqda U.Normatov shunday yozadi: ... "Chunonchi, Shukur Xolmirzayevning 90-yillari yozgan esselari, jumladan, "Adabiyot o'ladimi?" maqolasi, ustoz O.Sharafiddinovning "E'tiqodimni nega o'zgartirdim?" badiasi, shuningdek, kaminaning ustozga ergashib yozgan "O'tilgan yo'lning ba'zi saboqlari" mutolaasi chog'i bunga ishonch hosil qilish mumkin"[11]. Salomat Vafo, Zulfiya Qurolboy qizi, Jamila Ergasheva, Dilfuza Qo'ziyeva, Lobar Rustamova, Ma'mura Zohidova, Nodirabegim Ibrohimova, Tillaniso, Raxshona Axmedova kabi adibalarimiz ham shu davrni ko'rgan, uning ayol ma'naviy va moddiy hayotiga ta'sirini teran tushungan ijodkorlarimizdandir.

Jamiyatning eski badiiy-estetik ideali o'z umrini yashab bo'ldi, kishilarning mafkuraviy ishonchiga, talablariga, orzu-istaklariga mos ayolni badiiy aks ettirishga ehtiyoj tug'ildi. Shunday ekan so'nggi yillarda mamlakatimizda olib borilgan qator ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar badiiy adabiyotdagi yangicha ayol qiyofasi tasviri talqinini taqozo etadi.

Izlanishlardan ma'lum bo'ladiki, ijtimoiy tuzum o'zgarishi, taraqqiyotning bir bosqichidan ikkinchisiga o'tilishi badiiy adabiyotda ayol obrazini yaratish, adabiyotshunoslikda esa ayol qismati, kechinmalari, ruhiyati tasviri muammosini kun tartibiga olib chiqadi. Zero N.Rahimjonov yozganidek, "san'atda qahramon masalasi — bu ijodkorning estetik poeziyasi, badiiyati va mahorati bilan bog'liqlikda namoyon bo'ladigan jarayon. Qahramon — bu ijodiy niyatlar, badiiy-falsafiy g'oyalar qay tariqa, qanaqa shakllarda ifodalanadi, degan gap"[5]. Xuddi shunga yaqin fikrni biz adabiyotshunos A.Ulug'ovning salmoqli maqolasida ham uchratdik[6]. Demak, olimlar zamonaviy o'zbek hikoyachiligida ayol obrazi, uning ruhiyati masalasini adabiyotshunoslikning dolzarb muammolari sifatida hal etishga intilib kelishmoqda. Chunki yaratilayotgan har bir obraz yangi zamon, yangi davr ayollarining o'ziga xos ichki va tashqi olamini ifodalash bilan ayol ruhiyati tasviri talqinlarini yuzaga chiqaradi.

Zamonaviy o'zbek hikoyachiligida ayol tushunchasi asosini ijtimoiy o'zgarish bilan bog'liq holda o'rgangan M.Xolbekov unga turli adabiy yo'nalish va oqimlar ta'sirini ham to'g'ri payqaydi. "Yangi uslub artarish payiga tushgan qalamkashlar realizm doirasidan uzoqlashtiruvchi turli falsafiy nazariya va estetik dunyoqarashlar zamirida yangicha uslub hamda janrlarni kashf etishga kirishdilar" [7]. degan xulosaga keladi. Bugungi ayol qiyofasini yaratish qiyinligi, bu yo'lda turli chalg'ishlar, asosiy maqsaddan chetga chiqishlar borligiga ishora qiladi. Biroq ijodiy jarayon va ijodkor turli adashish va yo'lini yo'qotishlar ichida yashar ekan "...inson ruhiy kechinmalari va his-tuyg'ularini bevosita tasvirlash ularning asosiy predmetiga aylandi.... ya'ni turfa rang-so'zlar hamda bo'yoqlardan "mukammal uyg'unlik"ni yaratishga xizmat qila boshlash"ini to'g'ri ko'rsatgan. Demak, adabiyotshunoslikda ayol obrazi tasvirining taraqqiyoti hamma vaqt ham bir xilda va tekis bo'lmagan deb xulosa qilish mumkin.

So'nggi yillarda milliy, diniy qadriyatlar, uzoq taraqqiyot davrida ajdodlardan o'tib kelgan qator tushuncha va qarashlar yangicha shaklda jonlana boshlandi. Shu tariqa ayol mohiyati mustaqillik yillarida yangicha nuqtayi nazardan badiiy aks ettirila boshlandi. Zero, "hayotning kelib chiqishi va tugab bitishi sabablari, hatto odamlar hayotining chiqib kelish sabablari ham teran bir sirga chulg'angan. Shu sirni tan olish, e'tirof etish borliqqa muayyan ulug'vorlik baxsh etadi".[8,46] Demak, zamonaviy o'zbek hikoyachiligida ayol obrazi tasvirining badiiy aks ettirilishi avvalgi davrdagilardan farq qiladi. Uni tadqiq etish dolzarblik kasb etadi.

Maqolaning tegishli bo'limida keltirilgan tadqiqotchi olimlarning ayol obrazini tasvirlash borasidagi nazariy

qarashlari va konseptual g'oyalarini tahlil qilish asosida, badiiy ijodda ayol ruhiyati tasvirining taraqqiyot yo'lini quyidagi tarixiy-mantiy bosqichlarga ajratish maqsadga muvofiq:

“1. Islom davrida o'zbek adabiyotida ayol komil inson tushunchasi asosida shakllandi va rivojlandi. Bunda ayol haqqa, xudoga yetishishi va unga qo'shilish ketishiga urg'u berildi.

2. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida boshlangan yangicha qarash va xalq hayotidagi o'zgarishlar badiiy adabiyotdagi ayol va uning tasviri ham yangicha bo'lishiga omil bo'ldi. Endi ayol avvalgidek o'ta subyektiv yoki hammasini Yaratgandan kutish kerak degan aqidadagi kishi emas, balki ijtimoiylashgan, o'z muammosi va qiziqishlariga javob izlashga urinatgan ayol sifatida bo'y ko'rsata boshladi.

3. Zamonaviy o'zbek hikoyachiligida ayol tasvirining tadrijiy taraqqiyoti bosqichlari quyidagicha: bozor ayollari, tafakkur ayollari, o'zga olam ayollari, g'ayritabiiy xususiyatga ega ayollar, ezgu va yovuz niyatli ayollar.” [3]

Tadqiqot doirasida o'rganilgan ilmiy muammolarni umumlashtirib aytish mumkinki, "ayol mohiyati" tushunchasi chuqur tarixiy ildizlarga ega bo'lib, o'zgarmas hodisa emas. Ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar va davrlar almashinuvi natijasida ushbu konseptual tushuncha ham muttasil evrilishlarga yuz tutadi hamda so'z san'atida o'ziga xos badiiy ko'rinishlarini namoyon etadi. Adabiy jarayonda muhrlangan ana shu o'zgarishlar silsilasini ayol obrazining xronologik tartibda shakllangan tadrijiy taraqqiyot bosqichlari sifatida qabul qilish ilmiy jihatdan asosli sanaladi.

Shuningdek, o'zbek hikoyachiligining taraqqiyot bosqichlarida ayol psixologiyasining turlicha talqin qilinishi jamiyatning ma'naviy-falsafiy qarashlari bilan uzviy bog'liqdir. Ayniqsa, mustaqillik davri adabiyotida ijodiy erkinlikning qaror topishi ayol qismati va uning ruhiy dunyosini sof ijtimoiy-psixologik subyekt sifatida realistik tasvirlashga keng imkoniyatlar yaratdi. Hikoya o'zbek adabiyotida ko'p adiblar murojaat etadigan kichik epik janr hisoblanib, u ixcham, voqeani qulay tarzda ifodalash imkonini berishi, syujet ko'lami va personajlar soni cheklanganligi bilan ajralib turadi. Aslida "janr o'z tabiatiga ko'ra tasvirlangan voqea-hodisalarning xarakteri, ularning ichki qurilishi hamda arxitektonikasiga bog'liq bo'ladi. Asarning janrini belgilay ekan, san'atkor uning

tuzilishi, tematikasi, qahramonlari, konflikti va nihoyat, kitobxonini ham aniqlaydi. Shuning uchun janr haqida fikr yuritganda, san'atkor hayajonlantirgan hayotiy muammoning qay darajada to'laqonli badiiy shaklga solinganligi nazarda tutiladi”.[9,8] Hikoya janrining tarixi insoniyat tamadduni bilan uzviy bog'liq bo'lib, u barcha davrlarda inson ruhiyatining ajralmas ifodasi bo'lib kelgan. Har bir ayolning hayoti o'zi bir adoqsiz hikoya bo'lsa, adabiyotda bu hayot manzaralari orqali ayol xarakteri va ichki dunyosi kitobxon ma'naviyatiga ta'sir o'tkazish darajasida yoritiladi. Haqiqiy ijod mahsuli ijodkorning hayotiy kuzatuvlari va mahorati mahsuli sifatida insonlarni ezgulikka chorlashi lozim. Zero, har qanday badiiy bitikning asl qimmatini uning o'quvchi qalbiga ko'rsatgan ta'sir kuchi bilan belgilanadi. Yozuvchi O'tkir Hoshimov: “Ikki eng xolis hakam: kitobxon va vaqt sinovidan o'tgan asar haqiqiy asardir”[10], - deydi. Yaqin yillargacha badiiy adabiyotda “ijobiy qahramon” obraziga alohida ahamiyat berilar edi. Biroq so'nggi paytlarda bunga nisbatan kamroq e'tibor qilinadigan bo'ldi. “Ijobiy qahramon ko'pincha muallifning estetik idealini tashiydi. Ko'pchilik o'quvchilar badiiy asardagi ijobiy qahramonlarga ayrica ixlos qo'yadilar. Chunki ular hayotdagi ijobiy hodisalar tasviridirki, o'quvchilar bu hodisalarni alohida qadrlaydilar. Ijobiy qahramon o'quvchi uchun taqlid namunasi bo'lib xizmat qiladi”[11]. Zamonaviy o'zbek hikoyalarida ham shu jihat ustuvorlik qilib kelgan. Ammo hozirgi hikoyalarda obrazlar yaqqol ijobiy-salbiyga bo'linmaydi.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytganda, ayol obrazi va uning mohiyati uzoq tarixiy asoslarga ega. Har bir davr uni o'zgartiradi, bu esa ma'lum ijtimoiy-iqtisodiy asoslar, omillar ta'sirida yuz beradi va badiiy adabiyotda o'ziga xos izini qoldiradi. Ana shu “iz” badiiy adabiyotdagi ayol qismati, ruhiyati konseptining yuqorida keltirilgan xronologik tartibdagi taraqqiyot bosqichlari shakli sifatida olinishi kerak.

Ayol botini, uning borlig'i, qismati va ruhiy holatining qalamga olinishi milliy tafakkurda hech bir ijodkor, ayniqsa, ayol hikoyanavislarni befarq qoldirmagan. Markaziy g'oyasi va qahramonlari ayolni tashkil etgan badiiy asarlar esa bugungi kundagi tadqiqotlarga zamin bo'lmoqda.

#### ADABIYOTLAR

1. Adabiyot nazariyasi. I jild. – Toshkent: Fan, 1978. – 416 b.
2. Adabiyot nazariyasi. Ikki jildlik. Adabiy-tarixiy jarayon. II jild.–Toshkent: Fan, 1979. II jild. – 249 b.
3. Adabiy turlar va janrlar. Uch tomlik. 1-tom.–Toshkent:Fan, 1991. – 382 b.
4. Adabiy tur va janrlar (tarixi va nazariyasiga oid). 2-jild. Lirika. – Toshkent: Fan, 1992. – 248 b.
5. Rahimjonov N. Bugunning qahramoni kim. O'zbek adabiy tanqidi. - Toshkent: Turon-Iqbol. 2011. - B. 291
6. Ulug'ov A. Qalb qandili. Adabiy-tanqidiy maqolalar. Adabiy portret. Adabiy-tanqidiy ocherk. - Toshkent: Akademnashr, 2013. - B.222-223
7. Xolbekov M. XX asr modern adabiyoti manzaralari: maqolalar to'plami. - Toshkent: Mumtoz so'z, 2014. - B. 3 67.
8. Jon Golsuorsi. Olti adibning qiyofasiga chizgilar / Jahon adiblari adabiyot haqida. - Toshkent: Sharq, 2004. - B. 46.
9. Rahimov A. O'zbek romani poetikasi (syujet va konflikt). Filol. fan. dok. ... diss. avtorefer. – Toshkent:1994. –B.
10. Hoshimov O'. Daftari hoshiyasidagi bitiklar. –T.: Sharq nashriyot-matba aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. 2008. 179 b.
11. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. –T.: O'qituvchi, 1980. –B. 193
12. Солижонов Й. Хақиқатнинг синчков кўзлари. - Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2009. - 228 б